

## ASTRONOMIYA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

<sup>1</sup>Hamidova Sarvinoz,

<sup>2</sup>O'rinova Oysha

Fizika va astronomiya ta'lim yo'nalishi talabalari


Navoiy davlat pedagogika instituti,

<sup>3</sup>D.I.Kamalova

Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof.v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7525554>

Astronomiya fanidan dars mashg'ulotlari jarayonini tashkil etishning asosiy shakli ham u yoki bu turdagi dars mashg'ulotidir, shubhasiz. Tashkil etilgan dars jarayonining har biri umumiy yakunlangan, shuning bilan birga aniq bir maqsadga (o'quvchilarga yangi bilimlar berish, yangi astronomik tushunchalarni kengroq shakllantirish, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasiga ega bo'lishni o'rgatish, mavjud bilimlarni yanada chuqurlashtirish va ularni mustahkamlash, takrorlash hamda nazorat qilish kabilar) yo'naltirilgan bo'ladi.



### 1-sxema

Har bir o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganda uning asosiy maqsadi va vazifasini belgilaydi, uni optimal hal qilish uchun o'qitish metodlarini (ular bir mashg'ulotning o'zida bir nechta bo'lishi mumkin) va o'quv ishini tashkil qilish shakllarini tanlab oladi. Astronomiya bo'yicha darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish bo'yicha uch xil izoh mavjud (1-sxema).

Dars – o'quv tarbiyaviy jarayonida asosiy qism sifatida pedagogika, psixologiya va didaktika prinsiplariga muvofiq tashkil etiladi. U o'qituvchi va o'quvchi-talabalarni, turli elementlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab va muvofiqlashtirilgan harakatlari majmuasidir.

Darslarning tuzilishi va turkumlari masalasiga qator pedagogik tadqiqotlar bag'ishlangan. Ularda darsni qurish (tashkil etish) da asos sifatida nima qabul qilinishiga: mazmuni, o'qitish metodlari, o'qitish jarayonining asosiy bosqichlari, o'qitish maqsadlariga bog'liq bo'lgan turli xil yondoshuvlar qarab chiqilgan. Masalan, I.I Sokolov darslarni ularning asosiy mazmuniga qarab turlarga ajratib beradi, ya'ni:

1. yangi o'quv materialini bayon qilish;
2. laboratoriya ishi;
3. yangi bayon qilingan material bo'yicha bilim va malakalarni mustahkamlash va mashq qilish;
4. o'zlashtirishni tekshirish;
5. kursning alohida qismlarini takrorlash.

B.A.Znamenskiy darsning quyidagi turlarini qarab chiqadi:

1. yangi o'quv materialni o'rganish;
2. yakuniy astronomik praktikum;
3. astronomik masalalarni yechish;
4. o'quvchi-talabalarni ekskursiyaga tayyorlash, ekskursiyani yakunlash;
5. o'tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish;
6. o'quvchi-talabalarning bilim va ko'nikmalarini hisobga olish.

Bu darslarda olib boriladigan o'quv ishlarining belgilariga qarab turlarga ajratishdir.

Astronomiya darslarining umumiy o'rta ta'lm maktablaridagi asosiy pedagogik maqsadlariga asoslanib, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) Yangi mavzu materialini to'liq tushunish va o'rganish hamda mavzu yuzasidan yangi tushunchalar hosil qilish;
- 2) Mavjud nazariy bilimlarni yanada kengaytirish bilan birga amaliy muhit muammolarni tushungan holda shakllantirish;
- 3) Bilim oluvchilar egallangan bilimlarini sarhisob qilish va hisobga olish;
- 4) Bilim oluvchilar tomonidan olingan bilimlarni nazariy jihatdan umumlashtirish va yanada chuqurlashtirish;
- 5) Umumiy holda olingan dars (aralash dars).

O'quv mashg'ulotlari darsi tuzilish jihatidan va pedagogik maqsadi tomonidan o'zaro o'xshash bo'lishi ham mumkin.

Astronomiya fanidan dars jarayonining tuzilishi quyida keltirilgan elementlarni ham o'z ichiga olishi kerak bo'ladi:

- a) yangi mavzuni tushuntirish davomida astronomiya faniga oid yangi tushunchalarni shakllantirish;
- b) o'quv mashg'ulotlarida olingan astronomik bilimlarni amaliyotda qo'llash;

- v) bilim oluvchiga uy vazifasi tayyorlash;
- g) oldindan o'tilgan mavzularni doimiy takrorlash va nazoratga olish;
- d) o'qituvchining pedagogik faoliyati (bilimi, ko'nikma, malakasi) ni, o'quvchi olgan bilimlarda, ko'rsatgan natijalari asosida ochib berish va aniqlashtirish orqali umumiy faoliyatiga baho berish.

Keyingi yillarda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida o'qitishning yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda, boshqa fanlar qatori Astronomiyani o'qitishda ham rivojlangan mamlakatlarda sinalgan, samarali natijalar bergan dars turlari qo'llanmoqda. Bu darslarning muhim jihati shundan iboratki, unda o'quvchi-talabalarni ko'proq mustaqil ishlashga, darsni amaliy jihatini kuchaytirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Agar, o'quvchi chuqur nazariy bilimga ega bo'lsa-yu, lekin yetarli amaliy ko'nikmani egallamagan bo'lsa, u o'zining bilimni amaliyotda qo'llay olmaydi va bilimni foydali maqsadda yo'naltira olmaydi. Shuningdek, o'quvchi-talaba mustaqil bilim olish ko'nikmasini egallamagan bo'lsa, u o'z bilimni chuqurlashtirish, rivojlantirish va yangilash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shu tufayli yangi turdagi darslarni Astronomiya o'qitish jarayoniga kirib kelishi samarali natija berishi tabiiydir.

Hozirgi paytda fan va texnika shunday tez rivojlanib bormoqdaki, uni o'quv dasturlariga kiritib ulgurish juda qiyin. Buni inobatga olgan holda har bir umumiy o'rta ta'lim maktabi astronomiya fani o'qituvchisi internet tizimi va boshqa ommaviy axborot manbalari orqali hozirgi fan va texnika yangiliklariga tegishli ma'lumotlarni olib, dars jarayonida qo'llashlari kerak bo'ladi, aks holda o'quvchilarga bugungi zamon talablari darajasida bilim bera olishlari qiyinlashadi.

Ta'limda har bir astronomiya fani o'qituvchisi Astronomiya fanini o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanishlari bilan cheklanmasdan, o'zlari ham dars o'tishning samarali usullarini yaratish ustida ishlashi va ijod qilishini davr talab qilmoqda.

Oxirgi paytlarda aksariyat ko'pchilik pedagog-o'qituvchilar yangi mavzuni o'rganish davomida darslarida o'quvchilardan ma'lumotlarni so'rash va ularni baholashni asosan dars boshida emas, balki dars davomida va oxirida, o'rganilgan materialni mustahkamlashda amalga oshirmoqda.

Bunda o'tilganni takrorlash yangi material uchun zarur bo'lsa, qisqacha, jonli suhbat shaklida olib boriladi va baholash shart emas. Darsning asosiy qismi yangi bilimlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Izbosarov B., Kamolov I., Axmedov A., Ro'ziyev R. "Masalalar yechishda amaliy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari". Pedagogik ta'lim jurnali. 1-son. 2008.
2. Kamolov I., Omonboyeva M., Mansurova Sh. Exploring the scientific legacy of great scientists in mathematics and astronomy. "Academia science" ilmiy-tadqiqotlar markazi. UzAcademia ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent. 361-364 b. 2020.